

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

3-2023

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>M.B.Yuldasheva</b>	
Tabiiy fanlar yo'nalishi talabalarining ingliz tilini o'rganish ehtiyojlariغا bo'lган munosabati tadqiqoti .....	580
<b>Sh.Dadabayeva</b>	
Qo'shma gaplar turkumida qiyoslash mazmunidagi bog'lovchisiz qo'shma gaplar .....	583
<b>G.R.Mamadalieva</b>	
Ingliz va o'zbek tillarida "foot/oyoq" kontseptining nominativ maydoni .....	587
<b>Z.M.Abdullaev</b>	
Asl turkiy antroponimlar va ularning tarixiy-etimologik shakllanishi .....	595
<b>X.Abdurahmonov</b>	
O'zbek tilshunosligi tarixida mavhum otlarning o'rganilishi va ularning ahamiyati .....	599
<b>M.R.Otaboyeva</b>	
O'zbek va ingliz tillaridagi fe'l semantik kategoriyalari bo'yicha tuzilgan graduonimik qatorlarlarning o'xshash va farqli jihatlari .....	603
<b>Z.Q.Jurayeva</b>	
Til o'rganish aspektlari .....	606
<b>D.R.Axmadalieva</b>	
Ingliz tili darslarida gamifikatsiyani qo'llash .....	610
<b>D.O'.Yusupova</b>	
Chet tili o'qitishning modellari xaqida .....	615

#### TILSHUNOSLIK

<b>S.G'.Shomurodova</b>	
Nikoh urf-odatlari bilan bog'liq kiyimlarning to'y qo'shiqlaridagi poetik talqini .....	619
<b>S.O.Samiyeva</b>	
Tojik tilidagi frazeologik evfemizmlar .....	624
<b>M.M.Abdulxayeva</b>	
Tilshunoslikda sinonimyaning o'rganilishi va uning turlariga oid olimlarning qarashlari .....	628
<b>D.L.Homitov</b>	
Klassik fors va hozirgi tojik tillaridagi qisqa unlilarning fonologik qiyosiy tahlili .....	632
<b>Z.V.Alimova</b>	
Alisher Navoiyning "Saddi Iskandariy" asaridagi ayrim forscha qo'shma so'zlarning leksik-semantik xususiyatlari haqida .....	639
<b>Z.S.Tashtemirova, M.S.Kushmatova</b>	
Rus va ingliz tillarida odamning ko'rinishini tavsiflovchi fazologizmlar .....	644
<b>M.N.Tilloxojayeva</b>	
Kognitiv kompetentsiya va uning tojik tilini o'qitishdagi o'rni .....	649
<b>D.Z.Mukumova</b>	
Shayx Kamol Xo'jandi g'azallaridan Ismat Buxoroiyning ta'sirlanishi .....	654
<b>S.M.Saidova</b>	
O'zbekiston oliy ta'lim oliygochlari milliy guruuhlarida rus o'g'zaki va yozma nutq o'qitilishi .....	658
<b>N.X.Toshnazarova</b>	
Xitoy tilida maqol va matallar .....	662
<b>M.M.Gazieva</b>	
Publististik uslub matnlarida tagma'no hodisasi xususida .....	665

## PUBLISTIK USLUB MATNLARIDA TAGMA'NO HODISASI XUSUSIDA

## В ТЕКСТАХ ПУБЛИЦИСТИЧЕСКОГО СТИЛЯ ЯВЛЕНИЕ ПОДТЕКСТ

## IN THE TEXTS OF THE JOURNALISTIC STYLE, THE PHENOMENON OF SUBTEXT

Gazieva Maftuna Muhammadovna<sup>1</sup><sup>1</sup>Gazieva Maftuna Muhammadovna

– Farg'ona davlat universiteti tilshunoslik kafedrasи dotsenti v.b.

**Annotatsiya**

Mazkur maqolada tilshunoslikning yangi sohalaridan biri bo'lgan pragmalingvistikaning muhim terminologik birligi hisoblangan tagma'no va implikatsiya hodisalari haqida babs yuritilgan. Shuningdek, tagma'no hodisasining uslubiy-funksional tadqiqida olimlar tomonidan turli nuqtayi nazar asosidagi yondashuvlarning mavjudligi, tasnif tamoyilidagi xilma-xillik ko'zga tashlanishi e'tiborga olingan. Tadqiqotning nazariy asoslari va metodlari haqida atroficha ma'lumot berilgan. Ishda umumnazariy metod sifatida qiyoslash, zidlash, semantik va pragmatik tahsil, umumlashtirish kabi usullardan foydalanilgan. Tagma'no hodisasi o'zining yashirin hukmga egaligi bilan implikatsiyaning elementi sifatida tahsilga torilgan. Tagma'no hodisasi olingen lisoniy dalillar yordamida aniq ko'rsatilgan.

**Аннотация**

В данной статье обсуждаются явления буквальности и импликации, которые считаются важной терминологической единицей прагматики, одной из новых областей лингвистики. Также при методологико-функциональном исследовании феномена подтекст учитывалось наличие ученых подходов, основанных на разных точках зрения, многообразие принципа классификации. Подробно представлены теоретические основы исследования и методы его проведения. В работе использовались такие методы, как сравнение, противоречие, семантический и прагматический анализ, обобщение как универсальный метод. Феномен подтекст сводится к анализу как элементу импликации, обладающему скрытым суждением. С помощью лингвистических свидетельств, полученных из художественной литературы, четко обозначены типы подтекст.

**Abstract**

This article discusses the phenomena of literality and implication, which are considered an important terminological unit of pragmalinguistics, one of the new areas of linguistics. Also, the methodological and functional study of the phenomenon of subtext took into account the presence of scientific approaches based on different points of view, the diversity of the classification principle. The theoretical foundations of the research and methods of its implementation are presented in detail. Methods such as comparison, contradiction, semantic and pragmatic analysis, generalization as a universal method were used in the work. The phenomenon of subtext is reduced to analysis as an element of implication that has a hidden judgment. With the help of linguistic evidence obtained from fiction, the types of subtext are clearly identified.

**Kalit so'zlar:** implikatsiya, implikatsiya turlari, tagma'no, uslub, publististik uslub, janr, publististik uslub janrlari, implitsit bilim, implitsit ma'no, implitsit fikr.

**Ключевые слова:** импликация, виды импликации, значение, стиль, публицистический стиль, жанр, жанры публицистического стиля, имплицитное знание, имплицитный смысл, имплицитная мысль.

**Key words:** implication, types of implication, meaning, style, journalistic style, genre, genres of journalistic style, implicit knowledge, implicit meaning, implicit thought.

**KIRISH**

Tilshunoslikka oid hozirgi amalga oshirilayotgan tadqiqotlarning ilmiy yangiligi shu sistemada mavjud bo'lgan ma'lum bir hodisani boshqa bir soha nuqtai nazaridan tadqiq etilishi bilan belgilanmoqda. Masalan, so'z ilmiy yoki rasmiy uslub to'g'risida boradigan bo'lsa, aynan shu uslubga xos bo'lgan xususiyatlarni takrorlash mavzuning ilmiy yangiligini tashkil etmasligi alohida e'tirof etiladi. Shuning uchun ham mazkur tadqiqotimizning mazmuni matnning quyi mazmuniy sathiga oid implikativ hodisalar va bu hodisalarning nutqning funksional uslub turlaridagi ishtiroti hamda ularning ana shu uslubga xos xususiyatlarini aks ettirishida deb hisoblaymiz.

**ISHNING NAZARIY ASOSI VA TADQIQ METODLARI**

M.N.Kojina [3], L.G.Kayda [5], G.Ya.Solganik [4], Y.I.Lelis [2], V.V.Shapoval [6], A.Nurmonov[7], M.Hakimov [8] kabi yirik tilshunoslarning asarlari mazkur tadqiqotning yuzaga kelishida nazariy asos bo'lib xizmat qildi.

Ishda umumnazariy metod sifatida qiyoslash, zidlash, semantik va pragmatik tahlil, umumlashtirish kabi usullardan foydalanildi.

### ASOSIY QISM

Publististik uslubda ham fikrlar implitsitlashtiriladi. Bu tipdag'i matnlarda muallif implitsit bilimlariga asosan fikrlarini publististik uslub qolipida bayon qiladi. Yuqorida ta'kidlanganidek, kommunikantlar tafakkuridagi implitsit bilim va boshqalar publististik uslub va uning janrlari bo'yicha mualliflarning qarashlarida ham fikrlarni shu uslubga xos tarzda ifodalanishiga imkon beradi. "Publististika termini lotincha publicus so'zidan olingen bo'lib, u ijtimoiy degan ma'noni anglatadi. Bu termin adabiy asar ko'rinishlaridan biri sifatida o'zida ijtimoiy muammolarni qamrab olgan muallifning munosabatini ifodalovchi tushunchalar mazmunini ifodalaydi. Shuningdek, u matbuotga oid bo'lgan maqola, ocherk, pamphlet, feleton va boshqa shu kabi asar ko'rinishidir" [1. 418]. Publististika terminiga berilgan mazkur ta'rif mazmuni asosida bu uslubga oid bo'lgan matnlarda ham muallifning ayrim fikrlari matn ortiga yashirilishi, yashirilgan fikrlar ba'zi holatlarda muallif tomonidan eksplikatsiyalashtirilishi, badiiy matndan farqli tarzda publististik uslubda yashirin fikrlarni oshkora shaklga chiqarish esa janr talabi bilan amalga oshirilishini alohida ta'kidlash kerak. Masalan, Ozod Sharafiddinov o'zining "Til ilmining darg'asi" nomli publististik maqolasida quyidagi fikrlarni bildiradi:

*Quloqlarni qomatga keltirib chinqirgan qo'ng'iqroqning uni o'chmasdan, auditoriyaning eshigi ochilib domla kirib keldi. Domla hali yosh, borgan bo'lsa endi 30 larga borgan, lekin barvasta, qomati tik, ikki beti qip-qizil, sochlari taroqqa bo'y bermay dikkayibroq turibdi. U anchamuncha bashang kiyangan edi — kostyum-shimi yangi, hafsala bilan dazmollangan, ko'ylagi qordek oppoq, yoqasiga gard yuqmagan, bo'ynida bejirimgina bo'yinbog'. Uning o'ziga zeb berib kiyinishi yaqqol sezilib turardi. O'sha paytlarda urush endigina tamom bo'lgan, hamma narsada urush tufayli tomir yoygan yo'qchilikning Izlari. Talabalar bir yoqda tursin, domlalarning ham ust-boshi yupun — hamma amallab topganini kiyadi. Shunday sharoitda bu domlaning bashang kiyngani, ustiga gard yuqtirmasligi, o'ta sarishtaligi bir oz erish tuyuldi. Domla sinchkov nigohi bilan talabalarni ko'zdan kechirdi, keyin yarim varaq oq qog'oz oldi-da, unga bo'rni o'rab, bosh va ko'rsatkich barmoqlari bilan ushlaganicha dars boshladi.*

*Bu domla — Ayub G'ulom edi. U hozirgi zamон o'zbek tilidan ma'ruzalar o'qirdi. Dastavval, bu odam o'ziga bino qo'yan bir oliftadek ko'rindi, uni «ha endi, bu kishi ham ko'pgina tilchilarining bittasi-da, nima karomat ko'rsatardi» deb bepisandroq kutib oldik.* (O.Sharafiddinov "Til ilmining darg'asi")

Mazkur publististik uslubga oid maqolada implitsit bilimga oid ijtimoiy-siyosiy davr haqidagi mazmun matnning propozitiv strukturasini tashkil qiladi. Bu fikrlar muallif tomonidan verbal vositalar orqali oshkora ifodalangan. Haqiqatan ham muallif urushdan keyingi yo'qchilik haqida yaxshi tasavvurga ega. Bu haqda u talabalar tugul, domlalar ham ust-boshi yupun yuradi deb davr haqidagi propozitsiyani tasavvuridagi modus bilan baholaydi. Muallifga xos ana shunday ijtimoiy-implitsit fikrlar "Shunday sharoitda bu domlaning bashang kiyngani, ustiga gard yuqtirmasligi, o'ta sarishtaligi bir oz erish tuyuld" jumlasidagi propozitsiyada ko'zga tashlanadi. Unda muallif nutqida uning tafakkuridagi qaysi fikr implitsitlashayapti degan savolga esa shunday javob berish mumkin. Mazkur publististik uslubga oid matnda "bu odam o'ziga bino qo'yan bir oliftadek ko'rindi, uni «ha endi, bu kishi ham ko'pgina tilchilarining bittasi-da, nima karomat ko'rsatardi» deb bepisandroq kutib oldik" jumlasidagi bungacha ko'p tilchilarni ko'rdik, ularning ma'ruza o'tishlari, mashg'ulotlari, tilshunoslik haqidagi fikrlari o'ta zerikarli, shuning uchun ham tilshunoslik fani zerikarli, bu fan bizga yoqmaydi, Ayub G'ulom ham ana shu tilchilardan ortib bizga nima ayta olar edi kabilar muallifga xos implitsit fikrlardir. Misollar tahlilida shuni alohida qayd etish kerakki, har qanday uslubga oid matnda fikrlar yashirin ifodalanadi. Bunday fikrlar muallifning borliqqa va voqealarga munosabatini belgilaydi. Publististik uslubga oid matnlar esa xuddi badiiy matn singari fikrlarni implitsit ifodalanishi uchun qulay bo'lgan nutq turiga kiradi. Bularda ham badiiy matndagidek, fikrlarni yashirin ifodalash orqali muallif tinglovchilar diqqatini o'ziga jaib qiladi. Aslida kommunikaqiya ishtirokchilarining o'zaro muloqotida yashirin shaklda aytilgan fikrlar so'zlashuvchilarining manfaatlarini himoya qiluvchi yoki fikrlarni ta'sir darajasini oshirishga xizmat qiluvchi usullardan biridir.

## TILSHUNOSLIK

Fikrlarni implitsitlashtirish yoki matnda fikrlarni tagma'no usuli bilan berish shu uslubning o'ziga xos xususiyatlaridan biridir. Publististik uslubda ham fikrni yopiq matnda berish yoki uni alohida usullar bilan ifodalash haqida quyidagi fikrlar bildiriladi. Jumladan, N.Fateeva “..publististik va reklama matnlarida fikrni tagma'no shaklida berish holatlari kuzatilishini ta'kidlaydi. U bunday uslub matnlarida tagma'noga ehtiyoj borligini badiiy adabiyot ustalarini “kashfiyat”lari tufayli deb hisoblaydi. Bunday funksional uslublarda ko'p holatlarda fikrlarning o'sishi va keskinlashishi tagma'no yuzaga kelish mexanizmi bilan farqlanadi” [2. 40], deb ko'rsatib o'tadi. Bu o'rinda publististik uslub matnlarida ham tagma'no qo'llanishi to'g'risida fikrlar berilgan bo'lib, uni quyidagi tarzda asoslash mumkin. Publististik uslub matnlari ham muallifning ijodiy faoliyati asosida shakllanuvchi jarayon bo'lib, ijodkor bu jarayonda o'z fikrlarini informativ belgilari asosida ifodalaydi. Publististik uslub matnidagi fikrlarning informativligi matnning tagma'no sathiga aloqador bo'lmaydi. Lekin uning ayrim qismlarida ommani diqqatini o'ziga tortuvchi va qiziqtiruvchi ayrim fikrlarga ishora mavjud bo'ladi. Ana shu ishora funksiyasini bajaruvchi fikrlar verbal vositalar ortiga singdiriladi. Natijada publististik uslub matnlarida ham shu uslubga tegishli bo'lgan tagma'no shakllari ko'zga tashlanadi.

Yillar davomida yig'ilgan va hayotiy tajribalar asosida orttirilgan bilim va ko'nikmalar inson tafakkuri uchun xos bo'lib, ular muayyan fikrlar uchun intellektual baza vazifasini bajaradi. Ijodkor yoki kommunikantlar tafakkuri ham ana shunday bilimlar asosida boyib boradi. Bu bilimlar muloqot yoki ijodiy jarayonda ma'lum bir fikrni aytishga yo'l ochadi. Kommunikatsiya ishtirokchilari o'zaro bir-biri bilan muloqotga kirishar ekanlar, o'z tafakkurlaridagi bilim va ko'nikmalarga suyanib fikrlaydilar. Fikrning tiniqligi, ravonligi, ixchamligi va lo'ndaligi, uni faktlar bilan asoslanishi hamda lisoniy vositalar bilan ifodalanishida muallifning individual mahorati, uslubi nutq vaziyati yoki matnning qaysidir uslubiy-funksional turiga nisbatan belgilanadi. Ayniqsa, muallif tomonidan aytilayotgan fikrlarni oshkora va yashirin ifoda shakliga tushurish nutqning funksional turini belgilashda muhim o'rinn tutadi. Muallifning mavjud funksional uslublardagi ijodiy tajribasi va individual uslubi qancha boy bo'lsa, bunday matnlarda fikrlarning mantiqiy izchilligi ko'zga tashlanadi. Fikrlarning mantiqiyligi va izchilligi matn mazmuniy yaxlitligini ta'minlovchi asosiy uslubiy belgilardan biridir. Mana shu uslubiy tamoyil va qoidalarga riosa qilgan har qanday matn muallifi o'z fikrlarini matn mazmuniy sathining har bir shaklida ifodalay oladi.

Yuqoridagi fikrlardan shuni tushunish mumkinki, publististik va reklama matnida uchraydigan tagma'no hodisasi va uning mohiyati hamda ifodalanish darajasi mualliflarning bilimlari, tezaurslari, badiiy adabiyot namunalardan xabardorlik darajasi bilan belgilanadi. Bu mualliflar boy tafakkur tarzi, borliqda yuz berayotgan voqeа va hodisalarni ongda idrok qilish darajasi hamda ularni ommaga lisoniy vositalar orqali sodda va ixcham tarzda, tushunarli tilda ravon bera olish qobiliyatining mavjudligi bilan ajralib turadilar. Bunday uslub publististik va reklama matnlariga xos janrlar tabiatini belgilashga xizmat qiladi. Har qanday matnda ham fikrlarni ifodalash usuli shu uslubning xususiyatlari asosida amalga oshiriladi.

Publististik va reklama matnlariga oid funksional stillarda tagma'no ishtirok etadi, uchraydi tarzidagi qarashlarga zid tarzda M.N.Kojina va T.Ya.Solganiklar publististik uslubga oid matnlarda tagma'noga ehtiyoj sezilmaydi, bunday matn turlarida tasvirlanayotgan faktlarga muallif munosabati ifodalanadi[3; 4.], xolos, degan g'oyani ilgari suradilar. Bizningcha, bu fikrni shunday izohlash mumkin, publististik uslubga oid matnlarda muallif tomonidan tanlab olingan faktlar tasviri janr tabiatidan kelib chiqqan holda ommaga taqdim etiladi. Matndagi turli xabar va axborotlar bilan muloqot qiluvchi omma va ularning hammasi ham fikrni implitsit tarzda qabul qilishga tayyor emas. Shuning uchun ham bunday matnlarda implitsit shaklga ega bo'lgan tagma'nolarga ehtiyoj yo'q, degan fikrni nazarda tutgan bo'lishlari mumkin.

“...publististika ham tagma'honing qisman mavjudligi bilan xarakterlanuvchi uslubdir. Bunday matnlarda qo'llanuvchi tagma'no shu uslubning o'zигагина xos bo'lgan ifoda shakliga ega. U sintaktik vositalar yordamida shakllangan “oraliq tagma'no” (“сквозной подтекст” [2. 40]) deb nomlanuvchi tagma'noning faqat bir ko'rinishidir” [5.44], degan qarash ham mazkur uslubda fikrlar implitsitlashtiriladi tarzidagi xulosani beradi. Fikr verbal ifoda ortiga yashirildimi, aynan, ana shunday matnlarda quyi mazmuniy sathga xos bo'lgan hodisalarning har qanday turi ko'zga tashlanadi. Faqat ular o'sha uslubga oid matnlarning janr xususiyatiga bog'liq bo'ladi.

Publististik uslubga oid matnlarda tagma'noning mavjud bo'lishi haqidagi fikrlar boshqa tilshunoslar qarashlarida ham aks etadi. Tagma'no haqidagi nazariy qarashlar har bir muallifning masalaga o'ziga xos yondashuvi asosida ifodalanadi. Quyida publististik uslubda qo'llanishi mumkin bo'lgan tagma'no va uning o'ziga xos xususiyatlari matnning mantiqiy bog'lanishi asosida izohlanadi. Matn va uning qismlarining o'zaro bog'langanligi uning mazmuniy yaxlitligini ta'minlovchi belgilar sifatida e'tirof etiladi. Bunday matnlarda qo'llanuvchi tagma'nolar matn mutoalasi jarayonida anglanishi ta'kidlanadi. Xususan, "...publististik uslubda qo'llanishi mumkin bo'lgan bunday tipdagi tagma'nolar muallif tomonidan oldindan rejalashtirilgan bo'ladi. U sintaktik strukturada fikrlarning struktur-semantik jihatdan siljishiga asoslanadi. Bu uslubga xos tagma'nolar bog'langan matn va uning tarkibiy qismlari kompozitsiyasiga mansub bo'lib, ular matnni o'qish jarayonida namoyon bo'ladi" [6]. Tagma'no fenomeni haqidagi bunday konsepsiya barcha matnlarda uchrashi mumkin bo'lgan universal xususiyati bilan ajralib turadi.

**XULOSA**

Demak, har qanday matnni o'qish davomida muallif aytmoqchi bo'lgan fikrlarni idrok qilish jarayoni yuz berib, o'zaro dialogik munosabatga kirishuvchi suhbatdoshlar matn mazmunining oshkora va yashirin ifodasida bir-birlarini birdek anglashlari mumkin.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Словарь иностранных слов. – Москва: Рус. яз., 1988. – С. 418.
2. Лелис Е.И. Подтекст как лингвостетическая категория в прозе А.П.Чехова. – Ижевск: Удмуртский университет, 2013. – С. 40.
3. Кожина М. Н. Стилистика русского языка. – Москва: Меж. отношения, 1979. – 160 с.
4. Солганик Г. Я. Стилистика текста. – Москва: Флинта: Наука, 2009. – 253 с.
5. Кайда Л. Г. Эффективность публицистического текста. – Москва: Изд-во МГУ, 1989. – С. 44.
6. Шаповал В. В. Имидж автора в публицистике: (роль сленговых и иных заимствований, маркированных как «чужое слово») // <http://www.philology.ru/marginalia/shapoval20.htm#1> (мурожаат санаси 27.04.23).
7. Нурмонов А. Танланган асарлар. III томлик. I том. – Тошкент: Академнашр, 2012.
8. Ҳакимов М. Ўзбектилида матннинг прагматик талқини: фил.фан. док.дисс. – Тошкент, 2001.